

## МАКТАБ О'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA О'QITISHDA TADBIRKLARNI JALB ETISH TEHNALOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15427460>

**Sattarova Sevinch Berdiyor qizi**

*JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti o'qituvchisi*

**Nabijonova Gulnoza**

*JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola maktab o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitishda tadbirkorlarni jalg etishning ahamiyatini tahlil qiladi. Maktab ta'limida kasb-hunar o'rgatish jarayoni nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishni taqozo etadi. Tadbirlar, stajirovkalar, mentorlik tizimlari va kasb-hunar ko'rgazmalari kabi amaliy faoliyatlar orqali tadbirkorlar o'quvchilarga haqiqiy ish tajribasini o'rgatishlari mumkin. Tadbirkorlarning o'quvchilarga kasb-hunarni o'rgatishda ishtirok etishi nafaqat o'quvchilarga, balki tadbirkorlarga ham yangi malakali kadrlarni tayyorlash, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish imkonini yaratadi. Maqlada tadbirkorlarning maktab ta'limiga qo'shgan hissalari va bu hamkorlikning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy foydalari keltirilgan. Tadbirkorlar va maktablar o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchilarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirishini ta'minlashda muhim rol o'yнaydi.

### **Аннотация**

В статье анализируется важность привлечения предпринимателей к профессиональной подготовке школьников. Процесс профессиональной подготовки в школьном образовании требует развития не только теоретических знаний учащихся, но и их практических навыков. Благодаря практическим мероприятиям, таким как мероприятия, стажировки, системы наставничества и ярмарки вакансий, предприниматели могут обучать студентов реальному опыту работы. Участие предпринимателей в обучении студентов профессии создает возможность не только для студентов, но и для предпринимателей готовить новые квалифицированные кадры, повышать социальную ответственность, продвигать инновационные идеи. В статье представлен вклад предпринимателей в школьное образование и долгосрочные социально-экономические выгоды этого партнерства. Эффективное сотрудничество предпринимателей и школ играет важную роль в обеспечении успешного выхода студентов на рынок труда.

## Abstract

This article analyzes the importance of involving entrepreneurs in vocational training of schoolchildren. The process of vocational training in school education requires the development of not only theoretical knowledge of students, but also practical skills. Through practical activities such as events, internships, mentoring systems and vocational exhibitions, entrepreneurs can teach students real work experience. The participation of entrepreneurs in vocational training of students allows not only students, but also entrepreneurs to train new qualified personnel, increase social responsibility and promote innovative ideas. The article presents the contributions of entrepreneurs to school education and the long-term socio-economic benefits of this partnership. Effective cooperation between entrepreneurs and schools plays an important role in ensuring the successful entry of students into the labor market.

### Kalit so'zlar

kasb-hunar, zamonaviy ta'lif, tadbirkorlik, kasbiy tanlov, ish tajribasi,

Zamonaviy ta'lif tizimi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni, kasb-hunarni o'rgatishga ham katta e'tibor qaratishi kerak. Maktab yoshidagi o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatish, ularning keljakdagi mehnat bozoridagi o'rnnini belgilashda juda muhimdir. Bunday maqsadga erishish uchun o'quvchilarning bilimini rivojlantirish, ularni amaliy ishlar bilan tanishtirish, kasbiy mahoratlarini oshirish zarur.

Bugungi kunda kasb-hunarni o'rgatish, faqat mакtabda beriladigan nazariy ta'lif bilan chegaralanmasligi, balki real ishchi jarayonlarida ishtiroy etish imkoniyatini yaratish zarur. Bunday jarayonlarni amalga oshirishda esa tadbirkorlar va xususiy sektorning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

### Tadbirkorlik va kasb-hunar ta'liming o'zaro aloqasi

Kasb-hunar ta'limi rivojlantirishda tadbirkorlikning o'rni beqiyosdir. Tadbirkorlar o'z faoliyatları orqali nafaqat yangi ish o'rınlarini yaratadi, balki o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatish uchun kerakli infratuzilma va resurslarni taqdim etishi mumkin. Tadbirkorlik va ta'limga uyg'unlashtirishning asosiy foydalari quyidagilardir:

1. Amaliy bilim va tajriba: Tadbirkorlar o'quvchilarga o'z bizneslarini qanday yuritishni, muammolarni qanday hal qilishni va haqiqiy ish jarayonlarini qanday boshqarishni o'rgatish imkoniyatiga ega. Bu o'quvchilarni keljakdagi ish bozoriga tayyorlaydi.

2. Kasbiy tanlov imkoniyatlari: O'quvchilarga o'zlariga yoqadigan va qiziqtirgan kasbni tanlashda yordam berish uchun tadbirkorlar ularni o'z

faoliyatlariga jalb etishlari mumkin. Bunday imkoniyat o'quvchilarga kasb-hunar sohasida erkinlik va o'ziga xos yondashuvni taqdim etadi.

3.Stajirovka va ish tajribasi: Tadbirkorlar maktab bilan hamkorlikda o'quvchilarga amaliy stajirovka dasturlarini tashkil etishlari mumkin. Bu esa o'quvchilarga o'zlarini real ish muhitida sinab ko'rish, malaka oshirish va kelajakda o'z ishlariga tayyorlanish imkonini beradi.

4.Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar: Tadbirkorlar, ayniqsa texnologik sohada faoliyat yuritayotganlar, o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o'rganish va ularni real amaliyotda qo'llash imkoniyatini taqdim etadi. Bu o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantiradi va ularni yangi ish usullariga o'rgatadi.

#### Tadbirkorlarni maktab ta'limga jalb etishning yo'llari

1.Hamkorlik dasturlari: Maktablar va tadbirkorlar o'rtasida maxsus hamkorlik dasturlarini yaratish mumkin. Masalan, tadbirkorlar maktablar bilan hamkorlikda malakali mutaxassislarni olib kelib, seminarlar o'tkazishlari, o'quvchilarga biznes yuritish asoslarini o'rgatishlari mumkin.

2.Kasb-hunar ko'rgazmalari va yarmarkalar: Maktablar o'z hududidagi tadbirkorlarni kasb-hunar ko'rgazmalari o'tkazishga taklif etishlari mumkin. Bu o'quvchilarga turli kasb-hunarlarni ko'rish va o'zlariga qiziqarli bo'lgan sohalar haqida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi.

3.Mentorlik tizimi: Tadbirkorlar o'quvchilarga mentor bo'lishi mumkin. Mentorlik dasturi orqali o'quvchilar real biznes muhitida ishlashni o'rganib, o'zlarini kasbga tayyorlashadi. Bu tizim o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, real tajriba bilan ham tanishtiradi.

Tadbirkorlar uchun foydalari.Tadbirkorlar uchun ham o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatish jarayoniga jalb bo'lish foydali bo'lishi mumkin. Quyidagi foydalar mavjud:

1.Yangi kadrlar tayyorlash: Tadbirkorlar maktab o'quvchilari bilan ishslash orqali o'z bizneslari uchun kerakli malakali kadrlarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, bu o'quvchilar kelajakda o'zlarining yangi bizneslarini boshlashda yordam berishi mumkin.

2.Ijtimoiy mas'uliyat: Tadbirkorlar jamiyat oldida o'z ijtimoiy mas'uliyatini ko'rsatib, ta'limga qo'shilgan hissalari orqali jamoada ijobjiy obro' qozonadilar. Bu ularning brendini mustahkamlashga yordam beradi.

3.Yangi biznes imkoniyatlari: O'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatishda ishtirok etish, tadbirkorlarga yangi biznes sohalarini kashf qilish, yosh avloddan yangi g'oyalar olish imkonini yaratadi.

Maktab o'quvchilarini kasb-hunar o'rgatishda tadbirkorlarning roli juda katta. Ularning ishtiroki nafaqat o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatish, balki o'z bizneslarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish uchun ham juda muhimdir. Maktablar va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlik kelajakda ta'lif sifatini oshirishga, yoshlarni real ish jarayonlariga tayyorlashga yordam beradi. Bunday hamkorlik, ayniqsa, kelajakdagi mehnat bozorida muvaffaqiyatli va malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qaror(78-сон, 11.02.2025 й.) билан "Ўқувчиларни касб-хунарга ўқитишида умумий ўрта таълим муассасалари ва тадбиркорлик субъектларининг ўзаро хамкорлик қилиш тартиби тўғрисида" ги низом.
2. **Shuvalov, A.V. (2012).** *Innovatsion ta'lif texnologiyalarini joriy etish: yangi usullar va amaliyot.* – Tashkent: "O'quvchi" nashriyoti..
3. **Turgunov, K. (2018).** *Kasb-hunar ta'liming innovatsion yondashuvlari.* – Tashkent: "O'zbekiston" nashriyoti.